

**INTERPRETATION OF THE TERMS “MUARRAB” AND “DAKHIL” IN ARABIC SOURCES*****F. Rashidovna Yakubova****Senior Lecturer**Department of Languages–1**Oriental University**e-mail: firuzaya1984@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: mu‘arrab, loanwords, muwallad, istishhād, Arabic linguistics, borrowed words, lexicology, Arabic language, language history, morphology.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article examines the concepts of mu‘arrab, dakhil, and muwallad in Arabic linguistics, focusing on their definitions, distinctions, and areas of overlap. Based on classical sources and the views of prominent scholars such as Al-Jawaliqi, Al-Maydaniy, Ibn Durayd, Al-Suyuti, and Al-Jawhari, the study analyzes the criteria used to identify loanwords in Arabic. Special attention is given to the role of the istishhād period in determining the authenticity of lexical items. The article highlights both similarities and differences in scholars’ approaches and concludes that while mu‘arrab refers to adapted foreign words integrated into Arabic structure, dakhil represents a broader category that includes all borrowed elements regardless of adaptation. The findings contribute to a deeper understanding of the historical development of Arabic vocabulary.

“MUARRAB” VA “DAXIL” ATAMALARINING ARAB MANBALARIDAGI TALQINI”***F. Rashidovna Yakubova****Katta o‘qituvchi**Tillar-1kafedراسي**Oriental Universiteti**e-mail: firuzaya1984@gmail.com**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: muʻarrab, daxil, muvallad, istishhād, arab tilshunosligi, oʻzlashma soʻzlar, leksikologiya, arab tili, til tarixi, morfologiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilshunosligida muhim oʻrin tutuvchi muʻarrab, dakhil va muvallad tushunchalari, ularning taʼrifi, oʻzaro farqi va umumiy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Al-Jawaliqi, Al-Maydaniy, Ibn Durayd, Al-Suyuti va Al-Jawhari kabi klassik olimlar qarashlariga asoslanadi. Maqolada arab tili oʻzlashma soʻzlarni aniqlash mezonlari, ayniqsa istishhād davrining ahamiyati yoritiladi. Olimlar fikrlaridagi oʻxshash va farqli jihatlar tahlil qilinib, muʻarrab arab tiliga moslashgan ajamiy soʻz ekanligi, daxil esa undan kengroq tushuncha sifatida barcha oʻzlashma soʻzlarni qamrab olishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari arab leksikasining tarixiy taraqqiyotini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕРМИНОВ «МУАРРАБ» И «ДАХИЛЬ» В АРАБСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Ф. Рашидовна Якубова

Старший преподаватель

Кафедра языков–1

Восточный университет

e-mail: firuzaya1984@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: муʻарраб, заимствованные слова (дахиль), муваллад, истишхад, арабское языкознание, заимствования, лексикология, арабский язык, история языка, морфология.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятия муʻарраб, дахиль и муваллад в арабском языкознании, их определения, различия и сходства. Исследование основано на трудах классических ученых, таких как Ал-Жаваликий, Ал-Майданий Ибн Дурайд, Ал-Суйутий и Ал-Жавхарий. Особое внимание уделяется роли периода истишхад в определении достоверности заимствованных слов. В статье анализируются сходства и различия во взглядах ученых и делается вывод о том, что муʻарраб это адаптированные заимствованные слова, тогда как дахиль является более широким понятием, включающим все иностранные элементы. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию исторического развития арабской лексики.

Kirish. Arab tili somiy tillar orasida o‘zlashma (iqtibos)larga boy tillardan biri hisoblanadi. Iqtibos jarayoni arab tiliga kirib kelgan so‘zlarning turli tarixiy bosqichlarni bosib o‘tganidan dalolat beradi. Bu jarayonga turli davrlarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy, madaniy va tilshunoslik omillari o‘ziga xos tarzda ta’sir ko‘rsatgan.

Arab tiliga o‘zlashgan so‘zlar o‘zlashish darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lib, ular to‘liq o‘zlashgan, qisman o‘zlashgan yoki hali to‘liq o‘zlashib ulgurmagan shakllarda uchraydi. Shuningdek, semantik jihatdan ayrim so‘zlar asl ma’nosini saqlagan holda qabul qilingan bo‘lsa, boshqalari ma’lum darajada o‘zgarishga uchragan holda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, iqtibos jarayoni natijasida yangi tushunchalarni ifodalovchi yangi so‘zlar ham shakllanadi. Bu masala arab tilining rivojlanishi, boshqa tillar bilan o‘zaro ta’siri va lug‘at boyligining kengayishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Klassik arab olimlari ushbu atamalarni izohlash, ularning chegaralarini belgilash va o‘zaro farqlash masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Natijada, arab tilshunoslik merosida bu ikki tushuncha turli manbalarda turlicha talqin etilgan va har bir olim o‘z yondashuvi asosida ularni sharhlab bergan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot arab tilshunoslik manbalarida “دخيل” (daxil) ya’ni “chet tillardan kirgan so‘zlar” va “مُعَرَّب” (muarrab) “arablashtirilgan so‘zlar” atamalarining talqini o‘rganiladi hamda klassik nahv olimlarining qarashlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilshunosligida “daxil” va “muarrab” hodisalari qadimdan olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Arab tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarning tabiati, ularning o‘zlashish darajasi hamda arab til tizimiga moslashuvi masalalari ilk lug‘atshunoslik manbalaridayoq keng yoritilgan. Xususan, Ibn Duraid (837–933) Jamharat al-Lugha (جمهرة اللغة), Azhariy (895–980) Tahdhīb al-Lugha (تهذيب اللغة), Javhariy (940–1002) Al-Shīhāh fī al-Lugha (الصحاح في اللغة), Sog‘oniy (1181–1252) Al-‘Ubāb al-Zākhīr (العباب الزاخر) hamda Ibn Manzur (1232–1311) Lisān al-‘Arab (لسان العرب) kabi fundamental lug‘atlarda daxil so‘zlar alohida qayd etilib, ularning kelib chiqishi va semantik xususiyatlariga izoh berilgan. Ushbu manbalarda mualliflar nafaqat bunday birliklarni keltirgan, balki ularning qaysi tillardan o‘zlashganini ko‘rsatib, ayrim hollarda asl shakllarini ham bayon qilganlar (Al-Jawaliqiy, 1990).

Mazkur masalaning nazariy asoslari esa keyingi tilshunoslar tomonidan yanada chuqurlashtirilgan. Jumladan, Jaloliddin Suyutiy (1445–1505) Al-Muzhir fī ‘Ulūm al-Lugha wa Anwā’ihā (المزهر في علوم اللغة وأنواعها) asarida arab tilining lug‘aviy qatlamlari, jumladan, o‘zlashgan birliklar masalasini tizimli ravishda yoritadi. Abu Mansur al-Jawaliqiy (1073–1145) Al-Mu‘arrab min al-Kalām al-A‘jamī ‘alā Ḥurūf al-Mu‘jam (المعرب من الكلام الأعجمي على حروف المعجم) asarida esa muarrab so‘zlarni maxsus tadqiq obyekti sifatida ko‘rib chiqib, ularni tasniflaydi. Ibn Jinni (941–1002) Al-Khaṣā’iṣ (الخصائص) asarida til hodisalarining umumiy nazariy masalalari bilan bir

qatorda, o‘zlashma birliklarning fonetik va morfologik moslashuv mexanizmlariga e‘tibor qaratadi. Ahmad al-Maydaniy (vaf. 1124) Nuzhat al-Ṭarf fi ‘Ilm al-Ṣarf (نزهة الطرف في علم الصرف) asarida esa so‘z yasash va morfologik tizim doirasida muarrab birliklarning o‘rni yoritiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda “daxil” va “muarrab” hodisalari yangi lingvistik yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Xususan, globalizatsiya jarayonlari va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida arab tiliga kirib kelayotgan yangi o‘zlashmalar, ayniqsa ingliz tilidan o‘zlashgan birliklar keng tadqiq etilmoqda. Hasan Nassar (1988) Al-Mu‘jam al-‘Arabī: Nash‘atuhu wa Taṭawwuruhu (المعجم العربي نشأته وتطوره) asarida arab leksikografiyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o‘zlashgan so‘zlarning o‘rnini tahlil qiladi. Uki Sukiman (2021)ning Word Production (Al-Tawlid al-Luġawī) in Arabic: Causes and Types maqolasida esa yangi so‘z yasash jarayonlari bilan bir qatorda o‘zlashmalar ham til taraqqiyotining muhim omili sifatida baholanadi. Abdulhafiz Khreisat (2013)ning Arabizi Detection and Conversion to Arabic tadqiqotida esa zamonaviy yozuv tizimlari va raqamli muhit ta‘sirida yuzaga kelayotgan yangi til hodisalari, jumladan, arabizmlarning arab tiliga moslashuvi masalalari ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek va rus olimlari ham bu borada o‘z fikr va mulohazalarini bayon qilishgan. Jumladan, T.SH. Qodirovning “Arab tili leksikologiyasi”, В.М. Белкин “Арабская лексикология” kabi kitoblarda mavzu bo‘yicha ma‘lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Tadqiqot materiallarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil asosida o‘rganildi.

Natijalar. Qadim zamonlardan buyon arab tiliga turli-tuman tillardan yuzlab so‘zlar kirib kelgan. Arablar bu so‘zlarni nutqda qo‘llaganlar, fashohat ahli ularni o‘z so‘zlarida ishlatgan, shoirlar esa o‘z she‘rlarida tilga olganlar. Hatto ularning ayrimlari Qur‘oni karim va hadisi shariflarda ham uchraydi. Luġ‘at tuzuvchilar va boshqa tilshunos olimlar bu turdagi so‘zlarni turli jihatlardan o‘rganib, ularni aniqlash uchun qoidalar hamda ularni arab talaffuzi va tuzilishiga moslashtirish uchun hukmlar belgilaganlar.

Bu borada ba‘zi nahv olimlarining fundamental asarlari ham asos bo‘lgan. Jumladan, ular til tizimida shakl va ma‘no o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan izlanishlarning rivojlanishiga ham muhim turtki bo‘lgan (Talipov, 2025, p. 602).

Ular bu so‘zlarni “مُعْرَبٌ” (mu‘arrab) “arablashtirilgan” yoki “مُعْرَبٌ” (mu‘rab) deb nomlaganlar. Al-Javhariy “عَرَبٌ” deb aytadi:

“تقول عربته العرب أو أعربته”

Sibawayh esa faqat “mu‘rab” (مُعْرَبٌ) (ayn harfi sukun bilan, ro harfi fathali) shaklini ishlatgan. “Al-Kitab” asarida shunday degan:

“هذا باب ما أعربه من الأعجمية”

(Sibawayh, 1988, p. 342/2).

Boshqa olimlar ham shu atamani ishlatganlar. Masalan, Abu Hatim al-Sijistani Al-Asma'i dan rivoyat qilib aytadi:

إن جدة أصلها أعجمي.... فأعرب (Al-Azhari, 1969, p. 459).

“Jidda so‘zining asl kelib chiqishi ajamiy bo‘lib, keyinchalik arablashtirilgan”.

Shuningdek, Abu Sa‘id “al-Istar” (أستار) haqida shunday deydi:

لأنه بالفارسية جهار فأعربوه فقالوا "أستار" (Al-Azhari, 1969, p. 382).

“Bu so‘z fors tilida ‘jahor’ edi, arablar uni arablashtirib ‘istar’ deb aytganlar”.

Ammo mashhurroq istiloh bu “mu‘arrab”, ya‘ni arab tiliga o‘zlashgan, unda barqarorlashgan so‘z bo‘lib, u tilshunoslik kitoblarida keng qo‘llanadi (Al-Jawaliqi, 1990, p. 13).

Arab tilshunosligida “Ta‘rib” (تعريب) atamasi ham uchraydi. Bu so‘z “a‘rroba” (عَرَب) fe‘lining masdari bo‘li, so‘zni chet tilidan arab tiliga ko‘chirishdir.

Al-Jawaliqiy qarashlariga ko‘ra, arab tiliga boshqa tillardan kirgan so‘zlar ikki asosiy toifaga ajratiladi: mu‘arrab va muvallad. Mu‘arrab deb, ajamiy so‘zning arab tiliga moslashtirilib, uning tovush va morfologik tuzilishi arab tili qoidalariga muvofiq o‘zgartirilgan hamda istishhād (ya‘ni hujjat sifatida qabul qilinadigan davrda) davrida qo‘llangan shakliga aytiladi. Bunday so‘zlar Qur‘on, hadis yoki fusahā arablar nutqida uchrashi bilan til tizimida mustahkam o‘rin egallaydi.

Muvallad esa istishhād davridan keyin arab tiliga kirgan yoki avvaldan mu‘arrab bo‘lgan so‘z asosida keyinchalik yaratilgan yangi shakllarni ifodalaydi. Shuningdek, qadimda arablashtirilgan so‘zlarning talaffuzi yoki shaklida keyingi davrda yuz bergan o‘zgarishlar ham muvallad doirasiga kiradi (Al-Jawaliqi, 1990, pp. 14-17).

Al-Jawaliqiy “muvallad” atamasiga yana shunday ta‘rif beradi:

غير أن «المولد لفظ عام يشمل كل ما أحدث من الكلمات بعد انقضاء عصر الاستشهاد سواء أكان ذلك عن طريق

النقل من اللغات الأعجمية أم الاشتقاق من معرب أم الاشتقاق من كلمة عربية أم الارتجال

“Biroq, ‘muvallad’ umumiy tushuncha bo‘lib, u istishhād davri tugaganidan keyin paydo bo‘lgan barcha so‘zlarni qamrab oladi. Bu so‘zlar xoh ajamiy tillardan ko‘chirish orqali, xoh mu‘arrab so‘zlardan hosil qilish orqali, xoh arabiy so‘zlardan yasaliş yo‘li bilan, yoki bevosita ijod (irtijol) orqali yaratilgan bo‘lishidan qat‘i nazar, barchasi ‘muvallad’ deb ataladi”.

Tilshunos olim Ahmad Maydoniy (vaf. 1124) o‘zining “Nuzhatu-t-tarf fi I‘lmi- s-sarf” asarining muqaddima qismida arab grammatikasida uchraydigan atamalar haqida toxtalib izoh berib o‘tadi. shulardan “الدخيل” (daxil) va “المعرب” (muarrab) tushunchalarini farqlab, shunday deydi:

دَخِيلٌ لِمَا لَيْسَ فِي كَلِمَتِهِمْ؛ وَمُعَرَّبٌ لِمَا عَرَّبُوهُ، أَي: جَعَلُوهُ عَرَبِيًّا

Ya'ni, "daxil" deb arablarning asl nutqida bo'lmagan, tashqi tillardan kirib kelgan so'zlarga aytiladi. Muarrab esa arablar tomonidan o'zlashtirilib, arab tiliga moslashtirilgan, ya'ni arabiy shaklga keltirilgan so'z hisoblanadi (Yakubova, 2021, pp. 619-623).

Daxil so'zi "فلان دخيل في بني فلان" (fulan dakhil fi banī fulan) degan iborasidan olingan bo'lib, ma'nosi "ulardan bo'lmagan kishi"ni bildiradi. Tilshunos olimlar bu so'zni mu'arrabga sinonim sifatida ishlatadilar va ularning ma'nosi birdek ko'riladi. Ba'zan ular ajamiy so'zni ikki nom bilan birga ifodalashadi. Masalan, Tahdhīb al-lughah (6/257) da: "an-nārjīl" (النارجيل) mu'arrab daxil' deyiladi; shuningdek (6/332) da: 'al-humayān dakhil mu'arrab' deyilgan".

أن الفرق بين المعرب والدخيل هو أن الدخيل أعم من المعرب فيطلق على كل ما دخل في اللغة العربية من اللغات الأعجمية سواء أكان ذلك في عصر الاستشهاد أم بعده، وسواء خضع عند التعريب للأصوات والأبنية العربية أم لم يخضع .
وسواء كان نكرة أم علماً. ذلك أن من اللغويين من لا يسمي العلم من الدخيل معرباً . قال الفيومي (١): وأما ما تلقوه علماً فليس بمعرب. وقيل فيه أعجمي مثل إبراهيم وإسحق

(Al-Jawaliqi, 1990, p. 17).

"Mu'arrab va dakhil o'rtasidagi farq shundaki, dakhil mu'arrabdan kengroq tushuncha. Shuning uchun, arab tiliga ajamiy tillardan kirgan har qanday so'zni dakhil deb atash mumkin, istishhād davrida bo'ladimi yoki undan keyin, arab tilining tovush va morfologik qoidalariga moslashgan bo'lsin yoki moslashmagan bo'lsin, va u noma'lum so'z yoki ism bo'lishidan qat'i nazar. Chunki ba'zi tilshunoslar atoqli ismlarni dakhil deb ataydilar, mu'arrab deb hisoblamaydilar. Al-Fayoumi shunday deydi: "Agar ular atoqli ism sifatida kelgan bo'lsa, u mu'arrab emas". Masalan, ajam hisoblangan atoqli nomlar: Ibrāhīm va Ishāq".

Suyuti leksik o'zlashtirishra "muarrab" atamasi, ya'ni "boshqa tillarda yaratilgan ma'noli so'zlarni arablashtirish" sifatida ta'rif bergan (Al-Suyuti, 1998, p. 7). O'zlashtirishga bergan bu qisqa ta'rifida u Sibavayhi va uning shogirdlari nuqtai nazariga qo'shilgan. Ular uchun xorijiy so'zning tilda qo'llanilishi "arablashuv" ning yagona mezoni bo'lib xizmat qilgan: shu nuqtai nazarga ko'ra o'zlashgan so'zning arab modellariga muvofiq tuzilganligi ayni muddao, biroq bu shart aslo majburiy emas. Sibavayxi fikriga ko'ra, xorijiy tildan olingan o'zlashuv shaklan o'zlashuvi ikki elementar jarayon uning arabcha so'z o'zgartiruvchi fleksiylar bilan ta'minlanganlik va al niqlik artikli bilan qo'llanish imkoniyatidan iborat bo'lib qoladi.

Taniqli tilshunos olim Javhariy o'zlashtirilgan lug'aviy birliklarni ikkiga: arablashgan hamda xorijiy so'zlarga ajratgan. "muarrab" ya'ni "arablashgan" atamasi arabcha shakl qabul qilib, assimilyatsiyalashgan so'zlarni belgilagan. "daxil" (begona, kirib kelgan) atamasi morfologik assimilyatsiyaga uchramagan va o'zining dastlabki, asl shaklini saqlab qolgan o'zlashgan so'zlarni anglatadi (Qodirov, Aliyev, 2010, p. 62).

Demak, so'zning shaklan assimilyatsiyalashuvi uchun bosh va asosiy talab:

a) o'zlashtirilayotgan atamaning tovush tarkibini buzmaslik, ya'ni o'zga tilga oid so'zni arab tili tovushlari yordamida talaffuz qilish,

b) so'z yasash muqobilligi qoidasiga muvofiqlik, ya'ni o'zga tildan kirgan so'zni arabcha modellarga moslash.

“Arab tilida, qadimgi manbalarning dalolat berishicha, Suriya va Mesopotamiya oromiy tillari, grek va lotin kabi qo'shni somiy tillardan kirib kelgan juda ko'p atamalar qatlami mavjuddir. Zamonaviy arab tili esa G'arb, Yevropa tillaridan texnik atamalar o'zlashtirilganligi bilan xarakterlanadi” (Белкин, 1975, p. 105).

Olimlar muarrab tushunchasini asosan to'rt holat bilan belgilaganlar:

1. Chet tillardan arab tiliga o'zlashgan so'zlar, bunda ularning shakli o'zgargan bo'lishi ham, o'zgarmagan bo'lishi ham mumkin.

2. Aslida arabcha bo'lmagan so'z, lekin arablar uni o'z nutqlarida boshqa tilda qo'yilgan ma'noda ishlatgan bo'lsalar.

3. E'tiborli fasih arablar tomonidan ishlatilgan so'zlar, ya'ni istishhad davri (arab tilining me'yoriy davri) notiqqlari tomonidan qo'llangan so'zlar.

4. Chet tilidan olingan so'zni arab tiliga kiritish, ya'ni uni arab tilining lug'aviy tizimiga moslashtirish (Tawfiq Shahin, 2003, p. 133).

So'zning ajamiy (arabcha emas) ekanini aniqlash usullari borasida ham tishunoslar o'rtasida baxs va munozaralar bo'lgan (Al-Maydani, 2014, p. 65).

Tilshunoslar, jumladan Suyutiy arab tilidagi so'zning ajam tilidan ekanini aniqlash uchun bir necha usullarni keltirganlar. Ular quyidagilar:

1. Naql (rivoyat) yo'li bilan. Ya'ni arab tilining mashhur imomlaridan biri bu so'zning ajam tilida ekanini bildirgan bo'lsa.

2. Arab tilidagi so'zlarning vazn tizimiga mos kelmasligi ham “daxil” so'zlarni aniqlash mezonlaridan biri hisoblanadi. Masalan, ibrisam (إبريسم) so'zi arab tilidagi odatiy so'z qurilishi vaznlariga mos kelmaydi.

3. So'z boshida nūn harfi kelib, undan keyin rā' harfi kelishi ham ajamiylik belgisi hisoblanadi. Masalan: narjis (نرجس).

4. So'z oxirida zāy harfi dāl dan keyin kelishi ham arab tiliga xos emas. Masalan: muhandiz (مهندز).

5. So'z tarkibida šād va jīm harflarining birga kelishi ham ajam so'zlarga xosdir. Masalan: al-šawljan (الصولجان), al-jass (الجص).

6. jīm va qāf harflarining bir so'z tarkibida birga kelishi ham shunday belgilar sirasiga kiradi. Masalan: al-manjanīq (المنجنيق).

7. Soʻz toʻrt yoki besh harfli boʻlib, unda “ḥurūf al-dhalāqa” (ذلاقة harflari) mavjud boʻlmasligi ham ajamiylik belgisi sanaladi. Asl arabcha soʻzlarda odatda ushbu harflardan biri qatnashadi. Masalan: safarjal (سفرجل), qaḍaʻmal (قذعمل), qarṭaʻb (قرطبع), jaḥmarish (جحمرش) (Al-Suyutiy, 1998, p. 27/1).

Ajam soʻzlar arab tilida uch turga boʻlinadi:

Birinchi qism. Arablar tomonidan oʻzgartirilib, arab til tizimiga moslashtirilgan soʻzlar boʻlib, bunday birliklar arabcha soʻzlar kabi qoʻllanadi. Masalan: dirham (درهم), bahraj (بهرج).

Ikkinchi qism. Arablar tomonidan qisman oʻzgartirilgan, biroq arab tilining soʻz yasash vaznlariga toʻliq moslashtirilmagan soʻzlardir. Shu sababli, bu turdagi birliklarga birinchi qismdagi qoidalar tatbiq etilmaydi. Masalan: ājurr (أجر), ibrīsam (إبريسم).

Uchinchi qism. Arablar tomonidan oʻzgartirilmagan holda qabul qilingan soʻzlardir. Agar ular arab tilining soʻz yasash modellariga moslashtirilmagan boʻlsa, arabiy soʻzlar qatoriga kiritilmaydi; aks holda, moslashtirilgan boʻlsa, arabiy birliklar sirasiga qoʻshiladi. Birinchi holatga misol: Khurāsān (خراسان) bu soʻz arab tilidagi fiʻālān (فعالان) vazniga mos kelmaydi. Ikkinchi holatga misollar: khurram (خُرْم) - sullam (سُلْم) vazniga qiyoslab moslashtirilgan; shuningdek, kurkum (كركم) va qumqum (قمقم) soʻzlari ham mos ravishda arabiy vaznlarga muvofiqlashtirilgan.

Shuningdek, baʼzan arablar ayrim tovushlarni talaffuz qilish qiyin boʻlgani sababli ularni boshqa harflar bilan almashtirganlar. Bu haqda Sibawayh shunday degan: ويبدلون مكان آخر الحرف الذي لا يثبت في كلامهم

“Ular oʻz nutqlarida mustahkam oʻrin tutmagan (yaʼni ishlatilmaydigan) harfni boshqa harf bilan almashtiradilar”.

Yaʼni, arablar oʻz nutqlarida mavjud boʻlmagan tovushlarni boshqa harflar bilan almashtiradilar. Masalan: kūsa (كوسه), mūza (موزه).

Bunda ayrim tovushlar fors tilida baʼzan hamza (ء), baʼzan esa yāʻ (ي) ga oʻzgarishi mumkin. Shu sababli arablar bunday tovushlarni oʻz nutqlariga moslashtirib, boshqa harflar bilan almashtirganlar. Masalan, jīm (ج) harfi yāʻ (ي) ga yaqin boʻlgani uchun bazan uning oʻrnida ishlatilgan.

Shuningdek, hāʻ (ه) harfi ham yāʻ (ي) ga oʻxshash fonetik xususiyatga ega boʻlgani sababli ayrim hollarda uning oʻrnini egallashi mumkin (Al-Suyutiy, 1998, p. 305).

Xulosa. Arab tilida tilshunoslar tomonidan muʼarrab va daxil tushunchalari alohida eʼtibor bilan oʻrganilgan. Muʼarrab bu ajam tilidagi soʻzning arab tiliga moslashgan shakli boʻlib, uning tovush va morfologiyasi arab tilining qoidalariga moslashtirilgan va istishhād davrida arablar nutqida ishlatilgan soʻzdir. Shu bilan birga, daxil tushunchasi muʼarrabdan kengroq boʻlib, arab tiliga ajamiy tillardan kirgan barcha soʻzlarni, shuningdek, qadimiy muʼarrab soʻzlardan keyinchalik hosil qilingan shakllarni ham oʻz ichiga oladi.

Olimlarning fikrlarida ayrim farqlar mavjud: masalan, ba'zi olimlar atoqli ismlar sifatida kelgan o'zlashma so'zlarni daxil deb yuritganlar, mu'arrab hisoblanmasligini ta'kidlagan bo'lsalar boshqalar (Al-Suyuti, Ibn Durayd) mu'arrab va dakhilni ba'zan sinonim sifatida ishlatadi. Shu bilan birga, olimlar mu'arrab so'zlarni aniqlash uchun tovush va harflarning tartibi, morfologik tuzilish va so'zning lug'aviy mosligi kabi qoidalarni belgilagan. Al-Jawaliqi, Maydoniy, Ibn Durayd va Al-Jawhari kabi olimlar ushbu qoidalarni o'z asarlarida keng yoritganlar.

Shuningdek, arab tilining boshqa tillar bilan uzoq tarixiy aloqada bo'lgani natijasida unda turli qatlam o'zlashma so'zlar shakllanganligi aniqlandi. Bu jarayonda fonetik va morfologik moslashuv asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Ayrim so'zlar arab tilining tovush va vazn tizimiga to'liq moslashgan bo'lsa, boshqalari qisman yoki umuman moslashmagan holda qo'llanilgan.

Daxil so'zi arab tiliga chet tillaridan o'zlashgan barcha so'zlarni ifodalaydi. U mu'arrabdan kengroq tushuncha bo'lib, so'z arab tiliga moslashtirilgan bo'lsin yoki bo'lmasin, istishhad davrida bo'ladimi yoki undan keyin paydo bo'lgan bo'lsin, har qanday kirib kelgan so'z daxil hisoblanadi. Shu bilan birga, daxil va mu'arrab o'rtasidagi asosiy farq shundaki, daxil tushunchasi mu'arrabni ham o'z ichiga oladi, kengroq va umumiy ma'noda qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Suyuti, J. D. 'Abd al-Rahman ibn Abi Bakr. (1998). Al-Muzhir fi 'Ulum al-Lughah wa Anwa'iha (M. Ahmad Jad al-Mawla, Ed.). Beirut: Dar al-Fikr. – 7, 27, 305 pp. (in Arabic)
2. Al-Jawaliqi, Abu Mansur Mawhub ibn Ahmad. (1990). Al-Mu'arrab min al-Kalam al-A'jami 'ala Huruf al-Mu'jam. Damascus: Dar al-Qalam. – 13p. (in Arabic)
3. Ibn Jinni, Abu al-Fath 'Uthman ibn Jinni. (1952). Al-Khasais. Cairo: Dar al-Huda. (in Arabic)
4. Al-Azhari, M. ibn A. (1969). Tahdhīb al-lughah. Dār al-Kutub al-'Arabī. (in Arabic)
5. Sibawayh, 'Amr ibn 'Uthman ibn Qanbar. (1988). Al-Kitab (Abd al-Salam Muhammad Harun, Ed.). Cairo: Maktabat al-Khanji. (in Arabic)
6. Husayn Nasar, D. (1988). Al-Mu'jam al-'Arabi: Nash'atuha wa Tatwuruha (Vol. 1). Cairo: Dar Misr li-Tiba'ah. (in Arabic)
7. Tawfiq Shahin. (2003). "Awamil Tanmiyat al-Lughah al-'Arabiyyah". Cairo: Dar al-Fikr al-'Arabi. – 133 p. (in Arabic)
8. Al-Maydani, Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad. (2014). Nuzhat al-Tarf fi 'Ilm al-Sarf (Yusria Muhammad Ibrahim Hasan, Ed.). Cairo. – 65p. (in Arabic)
9. . Khreisat, 'Abd al-Hafiz Ahmad. (2013). Lexical borrowing and the role of loanwords and Arabized words in enriching the Arabic language. American Journal of Humanities and Social Sciences, 1(2), 58–63. (in Arabic)

10. Sukiman, U. (2021). Word production (Al-Tawlid Al-Lugawy) in Arabic: Causes and types. *Indonesian Journal of Arabic Studies*, 3(1), May. (in Arabic)
11. Qodirov, T. Sh., & Aliyev, D. I. (2010). Arab tili leksikologiyasi. Tashkent. – 62 p. (in Uzbek)
12. Belkin, V. M. (1975). *Arabskaya leksikologiya*. Moscow. – 105p. (in Russian)
13. Yakubova, F. R. (2024). Maydoni's enduring influence in science and spiritual thought. *Eurasian Journal of Academic Research (EJAR)*, (12). Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/maydoni-s-enduring-influence-in-science-and-spiritual-thought>.(in English)
14. Yakubova, F. R. (2021). Nekotorye zamechaniya o grammaticheskom traktate Ahmada ibn Muhammada al-Maydani "Nuzhatu-t-taraf fi 'ilmi-s-sarf". *Ekonomika i sotsium*, (6-2), 85. Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-zamechaniya-o-grammaticheskom-traktate-ahmada-ibn-muhammada-al-maydani-nuzhatu-t-taraf-fi-ilmi-s-sarf> – 619-623 pp. (in Russian)
15. Talipov, N. B. (2025). Manuscripts and printed editions of "Al-Awāmīl al-Mī'a fī al-naḥw" by Abdul Qahir al-Jurjani. *Rukopisi i pechatnye izdaniya «Al-Avamil al-Mi'a fi nahv» Abdul-Kakhira al-Dzhurdzhani*. – Tashkent: Oriental Journal of Philology. – Pp. 599–608. (in Russian).